



ALOHIDA IJTIMOIIY YORDAMGA MUHTOJ AHOLI QATLAMI TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI KLASSIFIKATSIYASI

Latipova Nodira Muhtarjanovna

Professor s.f.d O‘zbekiston Milliy
Universiteti Ijtimoiy ish kafedrası mudiri

Yuldasheva Yulduz Ravshanovna

O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy ish yo‘nalishi magistranti
“O‘zbekinvest” EISK Jizzax
viloyat filiali andarrayteri
yulduz.yuldasheva0791@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada alohida ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlami tushunchasi va uning turlariga ta’riflar berilgan. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan chizmaga asosan har bir qatlam nima sababdan ushbu jadvaldan o‘rin egallaganligi izohlanadi. Jamiyatda eng avvalo aynan yordamga muhtoj qatlamlarga yordam ko‘rsatish dasturlarini takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy yordam, oilalar va ayollar, yordamga muhtoj qatlam, pensionerlar, nogironlar, ishsizlar, migrantlar, ijtimoiy yetimlar, kam ta’minlangan oilalar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar.


Xar bir mamlakatning rivojlanish bosqichlarida aholining turli qatlamlarining o‘rni bor. Ijtimoiy tabaqalanish undagi jamiyatning dolzarbligini bildiradi, ular tengsizlik mavjud, odamlar va ularning guruhları ijtimoiy mavqeining harakatsizligi. Ijtimoiy tabaqalanish



jarayonida jamiyatning turli ijtimoiy guruhlariga (qatlamlar, qatlamlarga) turli xil ijtimoiy guruhlariga farqlash va ularning jamoat ahvoliga farq qiladi.

Ijtimoiy himoya deganda yoshi, jinsi, millati, mansabidan qat'iy nazar, respublika fuqarolarining to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati tushuniladi. Ijtimoiy himoya choralariga fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy rehabilitatsiya tadbirlari kiradi¹.

Ijtimoiy ta'minotning maqsadi shundan iboratki u jamiyatdagi barcha kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy, sog'liqni saqlash va boshqa ta'minlanmagan ehtiyojlarini qondirishdan iborat.



Chizma 1². Ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlami tushunchasi va uning turlari klassifikatsiyasi

¹ Normamatova M.N. Ijtimoiy ish nazariyasi. O'quv qo'llanma. – SamDU 2020. – 274 b.

² Talaba tomonidan mustaqil tuzildi



Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda biz asosan yordamga muhtoj bo'lgan aholi qatlamini tushunamiz. Yuqoridagi jadvalda bizning nazdimizda aholining ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamlarini kiritganmiz.

Pensionerlik-ijtimoiy jihatdan faol bo'lmagan, ishlab chiqarishda deyarli ishtirok etmaydigan ayollar 55 yoshdan erkaklar esa 60 yoshdan³ keyin ega bo'ladigan ijtimoiy maqom. Pensiya yoshidagilarning deyarli barchasida birdan ortiq asosiy va yondosh kasalliklar mavjud bo'lib, bu kasalliklarni to'laqonli davolashning ayrim holatlarda iloji bo'lmaydi va ular umrlarining so'ngiga qadar kasalliklar bilan birga kurashib hayot kechiradilar. Har bir oila o'z oila buyuklarining barcha ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishadi ammo shunda ham aynan pensiya yoshidagilar ijtimoiy jihatdan ko'proq g'amxo'rlikka, e'tiborga va yordamga muhtoj qatlam sanalishadi. 1982-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi qarish bo'yicha Vena xalqaro harakat rejasi⁴ni tasdiqladi va bu quyidagilarni tasdiqladi: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan asosiy va ajralmas huquqlar to'la qarish jarayoniga hech qanday istisnosiz amal qilinadi".

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan 1998-yil 1-oktyabr – Xalqaro qariyalar kuni deb e'lon qilingan.

Qarilik davridagi odamlarning zaifligi butun dunyoda tan olingan. 2009-yil iyul oyida II Butunjahon assambleyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun qarilik davridagi odamlar "alohida himoyaga va qo'llab-quvvatlashga» muhtoj ekanliklarini aytishdi⁵. Gap shundaki, qarilik ularni kasalliklarga ham, zo'ravonlik va ekspluatatsiyaga nisbatan ko'proq zaiflashtiradi. Iqtisodiy va moliyaviy inqiroz davrida qariyalar ayniqsa himoyasiz bo'lib qoladilar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ta'kidlaganidek, "...qarilik davridagi odamlar ijtimoiy himoyaga muhtoj guruh bo'lib, bir

³ Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun. Lex.uz/acts/-112314 7-modda (Murojaat sanasi 26.10.2023 yil)

⁴ 1982-yili Keksalik muammolari bo'yicha Vena harakatlar rejasi un.org

⁵ Second World Assembly on Aging: Report of the Secretary General, 6 July 2009. UN Doc. A/64/127. 34p



tomondan jamiyat rivojiga alohida hissa qo‘shadi, boshqa tomondan esa alohida himoya va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj”⁶.

1966-yildagi “Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida” xalqaro pakt⁷ning 9-moddasi “har kimning ijtimoiy ta‘minotga, shu jumladan ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan huquqi”, qarilik yoshida nafaqa olish huquqi bilvosita tan olingan.

Nogironlik bu 1-2-3 guruhdan biriga mansub bo‘lib, harakatlari cheklanganligi tufayli o‘zgalar parvarishi va yordamiga muhtoj bo‘lgan aholi qatlami.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga⁸ ko‘ra, nogiron kishi o‘zini normal shaxsiy va (yoki) ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liq yoki qisman ta‘minlashga qodir bo‘lmagan har qanday shaxsdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 11-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish borasidagi chora-tadbirlari Davlat dasturi to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

2020-yil 15-oktyabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”⁹gi qonun qabul qilindi.

Nogironligi bor bo‘lgan shaxslar ijtimoiy ko‘makka ayniqsa muhtoj bo‘lgan qatlam sanalishadi. Hayotdagi har bir jarayonda to‘laqonli ishtirok etishlari uchun ham ularga ijtimoiy, psixologik, ruhiy-ma‘naviy, iqtisodiy yordam berishimiz lozim, nafaqat ijtimoiy ishchilar balki jamiyatning har bir a‘zosi inklyuziv hayot tarzida yashashni o‘rganishimiz lozim. Jahonning rivojlangan davlatlari bosqichma-bosqish inklyuzivlashtirish modellarini amalga oshirgani natijasida bugungi kunda g‘arbda nogironlar nisbatan mustaqil va ijtimoiy faol qatlamga aylanib ulgirishgan.

⁶ Follow-up to the 2nd World Assembly on Ageing : report of the Secretary-General A/64/127 – <https://digitallibrary.un.org/record/661475>

⁷ “Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida” xalqaro pakt. 1966-yil 16-dekabr Nyu-york lex.uz

⁸ “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi” (BMT, 1975) (Murojaat sanasi 21.09.2023)

⁹ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” lex.uz (Murojaat sanasi 21.09.2023)



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁰ 2022-yil 17-fevraldagi PF-74-son, “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹¹ 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmonlari hamda “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylarining moddiy ta‘minotini yaxshilash hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”¹² 2022-yil 8-iyundagi PQ-274-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda fuqarolardan qo‘shimcha hujjatlarni talab etmagan holda, “proaktiv shakl”da nafaqa va qo‘shimcha to‘lovlarni tayinlash tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Boquvchisini yo‘qotgan oilalar-bu oila boquvchisi bo‘lmaganligi uchun ruhiy, ma‘naviy, iqtisodiy, emotsional qiyinchiliklarga uchraydi. Oiladagi har bir a‘zo o‘z funksional vazifasini bajarishi lozim. Boquvchilik vazifasi esa oilada eng asosiy bo‘lgan vazifalardan hisoblanib, bu funksiya bajaruvchisi vafot etgan taqdirda oila boquvchidan mahrum bo‘ladi. Oila iqtisodiy jihatdan ta‘minlanmaganidan so‘ng kam ta‘minlangan oilaga aylanadi. Aksariyat jinoyatlar oiladagi yetishmovchiliklar oqibatida sodir etilayotgani ham hech birimizga sir emas. Jamiyatda jinoyatchilikni oldini olishda boquvchisini yo‘qotgan oilalarga ham alohida e‘tibor qaratish darkor.

“20-asrning so‘nggi o‘n yilliklarida ayollarning ko‘payib borayotgan nisbati to‘lanadigan mehnat bozoriga kirib borishi munosabati bilan boquvchi va uy bekasi

¹⁰ “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 17-fevraldagi PF-74-son lex.uz (Murojaat sanasi 21.09.2023)

¹¹ “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoni lex.uz (Murojaat sanasi 21.09.2023)

¹² “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylarining moddiy ta‘minotini yaxshilash hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 8-iyundagi PQ-274-son qarori lex.uz (Murojaat sanasi 21.09.2023)



erkakning oilaviy modeli ham amaliyot, ham mafkura sifatida jiddiy muammoga duch keldi”¹³.

Boquvchi modelining pasayishi oila a'zolarining iqtisodiy qo'llab-quvvatlashining eroziyasi va “vaqtni taqsimlash va nikoh va ota-onalikni tartibga solish” bilan birga keldi¹⁴. Ish kuchida ikki ota-ona bo'lsa, ish oilaviy hayotga putur etkazishi, natijada munosabatlarning buzilishiga olib kelishi yoki asl oila shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi xavfi mavjud.

To'liqsiz oilalar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) Yolg'iz onali oilalar, 2) yolg'iz otali oilalar 3) To'liq bo'lmagan oddiy- bolali yoki bir necha bolali ona yoki otali bola, 4) To'liqsiz kengaytirilgan – ona (ota) bir yoki bir nechta bolalar yoki boshqa qarindoshlari bilan yashaydigan oilalar. 5) Funktsional jihatdan to'liq bo'lmagan oilalar-bunda oilaning ota-onasi bo'ladi, lekin oilaga va bolalarga vaqt ajratolmaydigan (ish va boshqa sabablar) oilani tushunish mumkin. Bunday ota-onalar, huddi oila guruhidan chiqarib tashlanganday, unda nomigagina sanab o'tiladi va farzandlarining shaxsini shakllantirishda ishtirok etmaydi¹⁵.

To'liqsiz oila sifatida farzandlarga qarindosh bo'lmagan vasiy yoki homiy ota-onalarni ham keltirib o'tishimiz mumkin¹⁶. Shunga ko'ra bunday to'liq bo'lmagan oilalar noodatiy deb ataladi. Ular orasida o'z navbatida vasiylik huquqlari bo'yicha boshqa oilalar farzandlarini tarbiyalagan to'liqsiz oilalar ajratilishi mumkin. Nikohning bekor qilinishi, bolaning noqonuniy tug'ilishi, ota-onalardan birining o'limi, yoki ularning alohida yashashi natijasida to'liq bo'lmagan oila shakllanadi.

Shu munosabat bilan to'liqsiz oilalarning quyidagi turlari farqlanadi: yetim, nikohsiz, ajrashgan, buzilgan turlarini uchratishimiz mumkin.

¹³ Sayer, Liana C.; Bianchi, Suzanne M.; Robinson, John P. (July 2004). "Are parents investing less in children? Trends in mothers' and fathers' time with children". *American Journal of Sociology*. The University of Chicago Press. **110** (1): 1–43. doi:10.1086/386270. JSTOR 10.1086/386270. S2CID 141718530.

¹⁴ Creighton, Colin (September 1999). "The rise and decline of the 'male breadwinner family' in Britain". *Cambridge Journal of Economics*. Oxford Journals. **23** (5): 519–541. doi:10.1093/cje/23.5.519. JSTOR 23599633.

¹⁵ Усманов Б.К. “К разработке понятия “социальная технология””-Материалы методологического семинара Института социального образования за 2005-2006 год. Екатеринбург 2009, с104

¹⁶ Трифионов Б.А. “Психологические проблемы в неполных семьях” Екатеринбург 2004 ст 44



Kam ta'minlangan oilalar- oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan jami bir oylik o'rtacha daromad miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan ortmagan holatga aytiladi. 568 000 so'm bu bugungi kundagi minimal iste'mol harajati hisoblanishini xabar beradi Statistika agentligi¹⁷. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 654-sonli qarori¹⁸ning 2-bobiga asosan oilani kam ta'minlangan deb e'tirof etish va ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash shartlari izohlangan. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r oilalar kiradi.

Kam ta'minlanganlik, qashshoqlik, ayniqsa, ota-onalarga ta'sir qiladi. Bunda "Nazorat va monitoring" va "intizomni qo'llashda izchillik" o'lchovlari buziladi. Shunga o'xshash natijalarga qashshoqlikning ta'siri bilan shug'ullanadigan bir qancha mualliflar ota-onalar va bolaning xatti-harakatlarida McLeod va Shanahan¹⁹ korrelyatsiyani ko'rsatadi hozirgi oilaviy qashshoqlik va onaning zaif hissiy sezgirliigi va tez-tez ota-onalar o'rtasida jismoniy jazodan foydalanish holatlari kuzatilishi aniqlangan. Xuddi shunday, Jocson va McLoyd²⁰ tartibsizlik, ota-onalarning qayg'usi, qattiq va nomuvofiq intizom kam ta'minlangan bolalarda ijtimoiy-emotsional muammolarni rivojlanishiga hissa qo'shadi deb aytib o'tishgan.

Ishsizlar- Aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari talab qilinadi. Bu qonuniy, rasmiy ish beruvchi bilan o'zaro shartnomaga ega bo'lmagan shaxslardir. Ular ayniqsa ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalardir. Korxona yoki tashkilot bankrot xolatni e'lon qilgandan so'ng ishchilarga hatto kompensatsiya to'lay olmagan holatlarda, oilalar o'z-o'zidan har oylik daromaddan ayriladilar. Bu esa ehtiyojlarni qondirish uchun yangi ish izlash kerakligini bildiradi. Ammo mutaxassislikga yarasha ish birdan topiladigan jarayon emas.

¹⁷ O'zbekistonda minimal iste'mol harajatlari miqdori 568 000 so'm etib belgilandi. Gazeta.uz 18.07.2023 yil soni

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 654-sonli qarori 21.10.2021 yil lex.uz

¹⁹ J.D. McLeod, M.J. Shanahan, Poverty, Parenting, and Children's Mental Health. In American Sociological Review 58, No. 3 (1993).

²⁰ R.M. Jocson, V.C. McLoyd, Neighborhood and Housing Disorder, Parenting, and Youth Adjustment in Low-Income Urban Families. In American Journal of Community Psychology 55 (2015).



Shunday ekan oila muayyan faoliyat bilan shug'ullangunga qadar ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llash darkor.

Kambag'allikni qisqartirish hamda bandlik vazirligi "O'zbekiston-2030" strategiyasida aholi bandligi hamda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilgari surilgan topshiriq va tashabbuslarni bir joyga jamladi va 2023-yilning oxirigacha vazirlik xitoylik mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar bilan 2024-2030 yillarga mo'ljallangan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqadi²¹.

Ishsizlikni keltirib chiqaruvchi yana bir omil bu diplomli savodsiz avlodning shakllanganligidir. Kasbini sevish o'z ustida ishlash va mehnat qilish tushunchalarining tobora yo'qolib borayotganligi, diplom berayotgan oliy o'quv yurtiga ish bilan ham ta'minlash vazifasining yuklatilganligida deb bilaman. Kerakli va qobiliyatli xodim har doim o'z ishini topa oladi. Unda ortiqcha yordamning keragi yo'q. Ammo sohasini bilmaydigan chalasavod diplomi qo'lida bo'lganlar uchun diplom bu bir parcha qog'oz rolini o'ynaydi holos. Yosh ulg'ayib kelayotgan avlod bilan kasbga yo'naltirish bo'yicha alohida ishlarni amalga oshirish darkor. Toki yoshlar o'z kasbini sevsin va mazza qilib ishlasin.

Migrantlar- bu ishlash maqsadida o'z yashash joyini o'zgartiruvchi shaxs hisoblanib, yo'nalishiga ko'ra aholi migratsiyasi ichki yoki tashqi migratsiyaga ajratiladi²². Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisi tarkibida 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar, ya'ni voyaga yetmaganlar aholining 40% dan ortig'ini tashkil etmoqda. Bu esa voyaga yetmaganlar orasida mavjud bo'lgan muammolarga alohida e'tibor qaratish, ularning yechimini topishni talab qiladi. Demak, davlatimiz siyosatining asosiy maqsadi yoshlarimizning hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topishi, munosib hayot tarziga ega bo'lishlari, jamiyatimizning kelajakda yanada gullab yashnashi uchun munosib farzand bo'lib, unib-ulg'ayishlari uchun zamin yaratishdan iborat. Yoshlar ijtimoiy guruhi hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy hayotida murakkab ko'rinishga ega tabaqa va qatlam sifatida o'zini namoyon etmoqda.

²¹ O'zbekiston-2030 strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha nimalar belgilanmoqda? Spot.uz 18.09.2023 yilgi soni

²² Aholi migratsiyasi uz.m.wikipedia.org



Homilador va yosh bolalarga qarayotganligi uchun ishlamayotgan ayollar – ular faol ijtimoiy hayot tarzidan nisbatan nafaol va yopiq hayot tarziga tushib qolgan, kuchli ichki va tashqi bosim ostida yashayotgan oila bekalaridirlar. Aynan ular jamiyat va yaqinlari tomonidan ko'proq mehr, g'amxo'rlik va iqtisodiy-ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlami hisoblanishadi.

Yurtboshimiz o'z ma'ruzalarida onalarimizga alohida urg'u berib, "Bir narsani aniq tushunishimiz kerak. Ham, oila, ham bola tarbiyasi bilan shug'ullanish bilan birga, o'qish, ish yoki tadbirkorlikni olib borish kata matonat talab qiladi"²³.

Taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" deb nomlangan. Unda, jumladan:

2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda uni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;

xotin-qizlarning ta'lim olishiga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o'rnini yanada oshirish;

xotin-qizlar o'rtasida biznes ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha bepul o'quv amaliy kurslarini tashkil etish, imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan va jarrohlik amaliyotini o'tkazish lozim bo'lgan xotin-qizlarning tibbiy muolaja xarajatlarini qoplab berish;

"Ayollar daftari" orqali xotin-qizlarning muammolarini hal etish amaliyotini o'rganish va tahlil qilish hamda orttirilgan tajribadan kelib chiqib, "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tartibi hamda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-

²³ Sh.Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan videosellektor yig'ilishi ma'ruzasidan. 01.03.2022 yil review.uz



quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi namunaviy nizom loyihalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ko'zda tutilgan.

Kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar-ular tibbiyot muassasalarida doimiy yoki vaqtincha ro'yhatda turuvchi, qisqa muddatda yoki uzoq muddat davomida alohida parvarishga muhtoj bo'lgan faol aholi qatlami hisoblanishadi. Bu otalar, onalar, ayollar, yoshlar bo'lishi mumkin. Ular kasallikga chalingunga qadar doimiy ish joyiga va oylik maoshga ega bo'lgan iqtisodiy faol shaxslardirlar. Ularni kasallikdan oyoqqa turib o'z faoliyatlariga (yoki sog'lig'i ko'tara oladigan darajadagi ish turiga) qaytish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy qo'llab quvvatlanishga muhtoj qatlam deb hisoblaymiz.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

- vaqtincha mehnatga qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda;
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallanganda oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki protez qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqazilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (kasallik) varaqasi asos bo'ladi. Nafaqaning bu turi mehnat qobiliyati yo'qotilgan birinchi kundan to u tiklanguncha qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlik belgilangunga qadar beriladi.

O'quvchi yoshlar-7 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan umumiy o'rta ta'limga jalb qilingan yoshlar.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili



shuni ko'rsatadiki yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasida ishlar talab darajasida tashkil etilmagan. Ayniqsa, yoshlarni ta'lim va tarbiya bo'yicha bir qancha muamolari bor. Muammolarning asl yechimi esa avvalo oiladadir!

Ajrim bo'lgan oiladagi har bir a'zoga-bu qonuniy ajrashgan oiladagi har bir shaxs nuqtai nazaridan yondashamiz. Ya'ni oiladagi ajrim faqat er va xotinga emas, balki oiladagi farzandlarning kelajagiga ham salbiy ta'sir qilishini, oilaviy jarohatlar keyinchalik ham oiladagi har bir shaxsning hayot kechirishiga to'siqlar qo'yishi mumkinligini yoritamiz.

Zamonaviy jamiyatda yangi turmush qurgan yosh oilalarning muammolari har xil. Yosh oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 5 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun²⁴ining 3-moddasiga ko'ra, er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol) -yosh oila deb belgilangan.

Ajralish paytida va qonuniy nizolar paytida, tashlab ketilgan turmush o'rtog'i o'zida rahm-shafqat, nochorlik, umidsizlik va g'azabni boshdan kechiradi. O'z vaqtida advokat yoki vositachining maslahati, u ham ijtimoiy ishchi bo'lishi mumkin, oilaga mulkiy va ijtimoiy huquqlarini (imtiyozlarini) saqlab qolishga yordam beradi. Ajralishning bu bosqichida bolalar ayniqsa ijtimoiy-psixologik yordamga muhtoj. Iqtisodiy ajralish er-xotinning har birida tartibsizlikni, zo'ravonlik, g'azabini yoki qayg'uni keltirib chiqarishi mumkin. Ota-ona va vasiylik o'rtasidagi muvozanatni saqlash. Tashlab ketilgan turmush o'rtog'i yolg'izlikni,

²⁴ Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi 406 sonli Qonun 14.09.2016 yil



yengillikni boshdan kechiradi, do'stlari va qarindoshlaridan maslahat so'raydi. Uy bekalari o'zlarini aybdor his qilib, muammolarni hal qila olmaslikdan qo'rqib, ishga qaytishga majbur bo'ladilar. Farzandlar xulq - atvori yangi yo'nalishga ega bo'ladi: yangi do'stlarni qidirish boshlanadi, faollik paydo bo'ladi, bolalar uchun yangi turmush tarzi va kundalik tartib barqarorlashadi, barcha oila a'zolari uchun yangi majburiyatlar shakllanadi. Bu davrda ayniqsa oilaning ijtimoiylashuvi, yangi hayot tarziga ko'nikishi muhim hisoblanadi. Bu oila a'zolariga doimiy ijtimoiy-ruhiy, iqtisodiy yordam zarur hisoblanadi.

Yotoq kasallarga qarash bilan band bo'lgan mehnatga layoqatli fuqarolar-ular o'z yaqinlarining salomatligini tiklagunga qadar mehnat faoliyati bilan shug'ullanishda cheklangan fuqarolardir. Ular o'zlarining asosiy ish faoliyatlarini kasallikga chalingan yaqinlarini qarashga sarflashadi. Daromad manbayi bo'lmaganligini hisobiga ular ham ijtimoiy-iqtisodiy yordamga muhtoj qatlam hisoblanishadi.

Qarovchi - operatsiya yoki jarrohlik amaliyotidan so'ng yordamga muhtoj bo'lgan, yotoqda yotgan, keksa yoki o'z-o'zini parvarish qila olmaydigan bemorlarga hamrohlik qiluvchi shaxs. Shifokorlar va hamshiralarning ko'rsatmalariga ko'ra, bemor joylashgan xonaning dori-darmonlari, shaxsiy parvarishi, ehtiyojlari va tozaligiga rioya qiladigan shaxslar parvarish qiluvchi deb ataladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-2022 yillarda onalar o'limi ko'rsatkichi 1,5 baravarga, go'daklar o'limi esa 1,3 baravarga kamayishiga erishildi.

Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarni bepul dori vositalari, tibbiy buyumlar va maxsus oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash joriy etilib, ularga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirildi.

Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo'limlari hamda kechayu kunduz shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatuvchi pediatriya postlari, shuningdek, poliklinikalarda bolalar bo'limlari tashkil etildi.



Barcha “tibbiyot brigadalari” tarkibiga qo‘shimcha pediatriya hamshirasi va doya shtatlari ajratildi.

Bolalar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollarni zarur vitamin komplekslari, yod preparati, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta‘minlash joriy etildi.

Ijtimoiy yetimlar-Hozirgi vaqtda kundalik nutqda va nazariy tadqiqotlarda ikkita tushuncha keng qo‘llaniladi: etim (etimlik) va ijtimoiy etimlik (ijtimoiy etimlik).

Ijtimoiy etimlik sotsiologik atama bo‘lib, qonunda etarli darajada mustahkamlanmagan, bu esa ushbu hodisaning tarqalishini baholashda sezilarli farqlarga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar — ota-onasi vafot etgan, ota-onalik huquqidan mahrum bo‘lgan, ota-onalik huquqidan mahrum bo‘lgan bolalar tushunchasi qo‘llaniladi²⁵.

Ijtimoiy etimlik - bu jamiyatda ota-onalik huquqidan mahrum bo‘lgan bolalarning ota-ona qaramog‘isiz qolganligi, ota-onalarning muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilishi va boshqalar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa.

Ijtimoiy etimlikning o‘sishi, ko‘plab ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash va boqish uchun normal sharoitlarni ta‘minlay olmasligi so‘nggi yillardagi jiddiy muammolardan biridir. Tashlab ketilgan bolalar soni ortib bormoqda va nosog‘lom oilalar farzandlarini tug‘ruqxonalarda qoldirishmoqda.

Islom fiqh adabiyotiga ko‘ra, balog‘atga yetguncha otasidan ayrilgan bolalarni tasvirlash uchun “yetim” atamasi ishlatiladi. Holbuki, zamonaviy xalqaro adabiyotlarda “etim” atamasi 18 yoshga yetmasdan ota-onasidan bir yoki ikkalasini ham yo‘qotadigan bolalarni belgilaydi²⁶.

²⁵ Социальная защита семей и детей в Узбекистане: монография / Н. М. Латипова; Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека; отв. Ред. Н. С. Аликориев. – Ташкент: Navro‘z, 2018. – 215 с.

²⁶ “Yetim”, Islom Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/yetim>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Normamatova M.N. Ijtimoiy ish nazariyasi. O'quv qo'llanma. – SamDU 2020. – 274 b.
2. Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun. Lex.uz/acts/-112314 7-modda
3. 1982-yili Keksalik muammolari bo'yicha Vena harakatlar rejasi un.org
4. Second World Assembly on Aging: Report of the Secretary General, 6 July 2009. UN Doc. A/64/127. 34p
5. Follow-up to the 2nd World Assembly on Ageing: report of the Secretary-General A/64/127 – <https://digitallibrary.un.org/record/661475>
6. "Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risida" xalqaro pakt. 1966-yil 16-dekabr Nyu-york lex.uz
7. "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" (BMT, 1975)
8. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" lex.uz
9. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 17-fevraldagi PF-74-son lex.uz
10. "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoni lex.uz
11. "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylarining moddiy ta'minotini yaxshilash hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2022-yil 8-iyundagi PQ-274-son qarori lex.uz
12. Sayer, Liana C.; Bianchi, Suzanne M.; Robinson, John P. (July 2004). "Are parents investing less in children? Trends in mothers' and fathers' time with children". American Journal of Sociology. The University of Chicago Press. 110 (1):



13. Creighton, Colin (September 1999). "The rise and decline of the 'male breadwinner family' in Britain". Cambridge Journal of Economics. Oxford Journals. 23 (5): 519–541.
14. Усманов Б.К. “К разработке понятия “социальная технология””-Материалы методологического семинара Института социального образования за 2005-2006 год Екатеринбург 2009, с104
15. Трифонов Б.А. “Психологические проблемы в неполных семьях” Екатеринбург 2004 ст 44
16. O'zbekistonda minimal is'temol harajatlari miqdori 568 000 so'm etib belgilandi. Gazeta.uz 18.07.2023 yil soni
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 654-sonli qarori 21.10.2021 yil lex.uz
18. J.D. McLeod, M.J. Shanahan, Poverty, Parenting, and Children's Mental Health. In American Sociological Review 58, No. 3 (1993).
19. R.M. Jocson, V.C. McLoyd, Neighborhood and Housing Disorder, Parenting, and Youth Adjustment in Low-Income Urban Families. In American Journal of Community Psychology 55 (2015).
20. O'zbekiston-2030 strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha nimalar belgilanmoqda? Spot.uz 18.09.2023 yilgi soni
21. Aholi migratsiyasi uz.m.wikipedia.org
22. Sh.Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan videosellektor yig'ilishi ma'ruzasidan. 01.03.2022 yil review.uz
23. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi 406 sonli Qonun 14.09.2016 yil
24. Социальная защита семей и детей в Узбекистане: монография / Н. М. Латипова; Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека; отв. Ред. Н. С. Аликориев. – Ташкент: Navro'z, 2018. – 215 с.
25. “Yetim”, İslam Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/yetim>